

XII. DEMOGRAFIYA VA MEHNAT

Asosiy demografik ko'rsatkichlar

2026-yilning 1-aprel holatiga Buxoro viloyatining doimiy aholisi soni 2 112,2 ming kishini tashkil etib, 2025-yilning 1-aprel holatiga nisbatan 1,4 foizga ko'paygan. 2026-yil yanvar-mart oylarida tug'ilganlar soni 8,7 ming nafarni, vafot etganlar 2,3 ming nafarni tashkil etib, tabiiy o'sish 6,4 ming kishiga teng bo'ldi. Viloyatimizga xorijiy davlatlardan ko'chib kelganlar soni 8 kishini va viloyatimizdan xorijga ko'chib ketganlar soni 29 kishini. Qayd etilgan nikohlar 2,8 mingtani, nikohdan ajralishlar 0,7 mingtani tashkil etgan.

Doimiy aholi soni	2 112,2	<i>ming kishi</i>
Tug'ilishlar soni	8,7	<i>ming kishi</i>
O'lganlar soni	2,3	<i>ming kishi</i>
Xorijdan ko'chib kelganlar	8	<i>kishi</i>
Xorijga ko'chib ketganlar	29	<i>kishi</i>
Nikohlar soni	2,8	<i>ming birlik</i>
Nikohdan ajralishlar soni	0,7	<i>ming birlik</i>

Doimiy aholi soni


Buxoro viloyatida doimiy aholi soni 2026-yil 1-aprel holatiga ko'ra 2 112,2 ming kishini tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 29,4 ming kishiga yoki 1,4 foizga ko'paydi. Doimiy yashash hududi bo'yicha shahar joylarda 775,9 ming kishi (jami aholi soniga nisbatan 36,7 %), qishloq joylarda esa 1 336,3 ming kishi (63,3 %) istiqomat qilmoqda. Ayollar soni 1 053,1 ming kishini (49,9 %), erkaklar esa 1 059,1 ming kishini (50,1 %), tashkil etmoqda.

Doimiy aholi soni

	2025-yil	2026-yil	<i>O'sish sur'ati, % da</i>
Buxoro viloyati	2 082,8	2 112,2	101,4
Buxoro shahri	301,4	305,5	101,4
Kogon shahri	65,6	66,3	101,1
<i>tumanlar:</i>			
Olot	106,1	107,6	101,4
Buxoro	182,4	185,7	101,8
Vobkent	151,8	154,7	101,9
G'ijduvon	328,2	332,9	101,4
Kogon	86,7	88,3	101,8
Qorako'l	174,7	176,7	101,1
Qorovulbozor	20,4	20,7	101,5
Peshku	133,8	136,1	101,7
Romitan	153,8	155,6	101,2
Jondor	189,3	192,3	101,6
Shofirkon	188,6	189,8	100,6

Buxoro viloyatida 2026-yil 1-aprel holatiga ko'ra 1 kvadrat kilometrda o'rtacha 52,5 kishi to'g'ri kelgan bo'lsa, 2025-yil 1-aprelida ushbu ko'rsatkich 51,8 kishini, 2022-yilning xuddi shu davrida esa ushbu ko'rsatkich 49,3 kishini tashkil etgan.


Aholi zichligi



Tirik tugʻilishlar


Viloyatimizda 2026-yilning yanvar-mart oylarida qayd etilgan tirik tugʻilishlar soni 8,7 ming kishini, har ming aholiga nisbatan tugʻilish koeffitsiyenti 16,8 promilleni tashkil etdi. Tugʻilishlar sonida 2022-yilning yanvar-mart oylaridan 2025-yilning mos davriga qadar barqaror oʻsish kuzatilsada, 2026-yilning yanvar-mart oylarida 2025-yilning mos davriga nisbatan 0,7 ming nafarga kamaygan.

Buxoro viloyatida qayd etilgan tugʻilishlar soni




Viloyatda tirik tug‘ilganlar soni 8,7 ming kishini, shundan o‘g‘il bolalar soni 4,4 ming kishini (jami tug‘ilganlar soniga nisbatan 50,6 %), qiz bolalar soni 4,3 ming kishini (49,4 %) tashkil etdi.

Jinslar bo‘yicha taqsimlanishi



Shahar va qishloq joylar bo‘yicha taqsimlanishi




Viloyatda tirik tug‘ilganlar soni 8,7 ming kishini, shundan shahar joylarida 3,0 ming kishini (jami tug‘ilganlar soniga nisbatan 34,5 %), qishloq joylarida 5,7 ming kishini (65,5 %) tashkil etdi.

Vafot etganlar


Viloyatimizda 2026-yilning yanvar-mart oylarida qayd etilgan vafot etganlar soni 2,3 ming kishini, har ming aholiga nisbatan o‘lim koeffitsiyenti 4,4 promilleni tashkil etdi. Vafot etganlar soni 2022-yilning yanvar-mart oylaridan 2023-yilning mos davriga qadar barqaror o‘shish kuzatilib, 2026-yilning yanvar-mart oylarida 2025-yilning mos davriga nisbatan 0,5 ming kishiga kamaygan.

Buxoro viloyatida vafot etganlar soni




Jinslar bo'yicha taqsimlanishi

Viloyatda vafot etganlar soni 2,3 ming kishini, shundan erkaklar 1,3 ming kishini (jami vafot etganlar soniga nisbatan 56,5 %), ayollar 1,0 ming kishini (43,5 %) tashkil etdi.



Shahar va qishloq joylar bo'yicha taqsimlanishi




Viloyatda vafot etganlar soni 2,3 ming kishini, shundan shahar joylarida 0,8 ming kishini (jami vafot etganlar soniga nisbatan 34,8 %), qishloq joylarida 1,5 ming kishini (65,2 %) tashkil etdi.

Nikoh tuzganlar

Viloyatimizda 2026-yilning yanvar-mart oylarida qayd etilgan nikoh tuzganlar soni 2,8 ming birlik, har ming aholiga nikoh koeffitsiyenti 5,4 promilleni tashkil etdi. Nikohlar soni 2022-yilning yanvar-mart oylaridan 2025-yilning mos davriga qadar barqaror o'sish kuzatilsada, 2026-yilning yanvar-mart oylarida 2025-yilning mos davriga nisbatan 0,1 ming nafarga kamaygan.

Buxoro viloyatida qayd etilgan nikoh tuzganlar soni




2026-yil yanvar-mart oylari davomida qayd etilgan nikohdan ajrashgan ayollarning o'rtacha yoshi 22,0 yoshni, erkaklarning o'rtacha yoshi esa 26,5 yoshni tashkil etgan.

**Nikoh tuzganlarning
o'rtacha yoshi**



**Shahar va qishloq joylar
bo'yicha taqsimlanishi**




Viloyatda nikoh tuzganlar soni 2,8 ming birlikni, shundan shahar joylarida 0,9 ming birlikni (32,1 %), qishloq joylarida 1,9 ming birlikni (67,9 %) tashkil etdi.

Nikohdan ajralishlar

Viloyatimizda 2026-yilning yanvar- mart oylarida qayd etilgan nikohdan ajralishlar soni 0,7 ming birlik, har ming aholiga nisbatan ajralish koeffitsiyenti 1,3 promilleni tashkil etdi. Ajralishlar sonida 2022-yilning yanvar- mart oylaridan 2025-yilning mos davriga qadar barqaror o'sish kuzatilsada, 2026-yilning yanvar- mart oylarida 2025-yilning mos davriga nisbatan 0,1 ming nafarga ko'paygan.

Buxoro viloyatida qayd etilgan nikohdan ajralishlar soni




2026-yil yanvar-mart oylari davomida qayd etilgan nikohdan ajrashgan ayollarning o'rtacha yoshi 31,5 yoshni, erkaklarning o'rtacha yoshi esa 34,7 yoshni tashkil etgan.

Nikohdan ajrashganlarning o'rtacha yoshi



Shahar va qishloq joylar bo'yicha taqsimlanishi



Viloyatda nikohdan ajralishlar soni 0,7 ming birlikni, shundan shahar joylarida 0,3 ming birlikni (42,9 %), qishloq joylarida 0,4 ming birlikni (57,1 %) tashkil etdi.

Aholi migratsiyasi


Ko'chib kelganlar soni

2026-yil yanvar-mart oylarida viloyat bo'yicha doimiy yashash maqsadida ko'chib kelganlar jami soni 3 546 kishini, shu jumladan viloyatning boshqa hududlaridan ko'chib kelganlar 3 538 kishini, xorijiy mamlakatlardan ko'chib kelganlar 8 kishini tashkil etdi.

Buxoro viloyati bo'yicha ko'chib kelganlar soni

	Ko'chib kelganlar soni		
	Umumiy	shundan:	
		ichki	tashqi
Buxoro viloyati	3 546	3 538	8
Buxoro shahri	1 073	1 072	1
Kogon shahri	246	245	1
<i>tumanlar:</i>			
Olot	79	78	1
Buxoro	611	609	2
Vobkent	120	120	-
G'ijduvon	331	330	1
Kogon	303	303	-
Qorako'l	135	133	2
Qorovulbozor	73	73	-
Peshku	102	102	-
Romitan	127	127	-
Jondor	138	138	-
Shofirkon	208	208	-

Xorijiy mamlakatlardan ko'chib kelganlar




Ko'chib ketganlar soni

2026-yil yanvar-mart oylarida viloyat bo'yicha doimiy yashash maqsadida ko'chib ketganlar soni jami 4 816 kishini, shu jumladan viloyatning boshqa hududlariga ko'chib ketganlar 4 787 kishini, xorijiy mamlakatlarga ko'chib ketganlar 29 kishini tashkil etdi.

Buxoro viloyati bo'yicha ko'chib ketganlar soni

	Ko'chib ketganlar soni		
	Umumiy	<i>shundan:</i>	
		ichki	tashqi
Buxoro viloyati	4 816	4 787	29
Buxoro shahri	1 368	1 366	2
Kogon shahri	226	225	1
<i>tumanlar:</i>			
Olot	176	176	-
Buxoro	470	470	-
Vobkent	217	217	-
G'ijduvon	610	609	1
Kogon	288	288	-
Qorako'l	344	344	-
Qorovulbozor	98	88	10
Peshku	140	140	-
Romitan	164	149	15
Jondor	267	267	-
Shofirkon	448	448	-

Xorijiy mamlakatlarga ko'chib ketganlar



Statistik ko'rsatkichlarga izohlar

Doimiy aholi – ro'yxatdan o'tkazilayotgan vaqtda muayyan aholi punkti yoki hududda doimiy istiqomat qilayotgan aholidan iborat bo'lib, bunga ushbu hududda doimiy ro'yxatda turib, lekin vaqtincha yashamaydigan aholi ham kiritiladi.

Shahar aholisi – shahar hududlarida, ya'ni meyoriy hujjatlar bilan shaharlar, shaharchalar sifatida belgilangan aholi punktlarida istiqomat qiluvchi aholi.

Qishloq aholisi – shaharlar va shaharchalar toifasiga kiritilmagan hududlarda - qishloq joylarda (ovullar, qishloqlar va boshqalar) istiqomat qiluvchi aholi.

Doimiy aholi sonini baholash - oxirgi aholini ro'yxatga olish ma'lumotlari asosida hisoblanib, unga har yili tug'ilganlar va muayyan hududga ko'chib kelganlar soni qo'shib, o'lganlar va muayyan hududdan ko'chib ketganlar soni ayriladi.

Tug‘ilish – tug‘ilish jarayonlarining sodir bo‘lishi va boshqa xususiyatlarini tavsiflovchi ko‘rsatkich.

1000 aholiga nisbatan tug‘ilish koeffitsiyenti – hisobot yilida jami tug‘ilganlar (tirik) sonini hisobot davridagi doimiy aholining o‘rtacha soniga bo‘lib, 1000 ga ko‘paytirish orqali hisoblanadi.

1000 ta aholiga nisbatan o‘lim koeffitsiyenti – hisobot yilida jami o‘lganlar sonini hisobot yilidagi doimiy aholining o‘rtacha soniga bo‘lib, 1000 ga ko‘paytirish orqali hisoblanadi.

Nikoh – erkak va ayol o‘rtasidagi, ularning bir-birlariga va farzandlariga nisbatan huquq va majburiyatlarini belgilab beradigan o‘zaro munosabatlari shakli. Er va xotin o‘rtasidagi yuridik munosabatlar fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish (FHDYO) organlarida nikohlarini ro‘yxatdan o‘tkazish natijasida o‘rnatiladi.

1000 aholiga nisbatan nikohlar koeffitsiyenti - hisobot yilida tuzilgan nikohlar sonini doimiy aholining o‘rtacha soniga bo‘lib, 1000 ga ko‘paytirish orqali hisoblanadi.

Nikohdan ajralish (nikohni bekor qilish) – er-xotinlarning hayoti davomida, tomonlar uchun qayta nikoh huquqini beruvchi, nikohlarning to‘liq yuridik to‘xtatilishi, nikoh FHDYO yoki sud organlarida ajralishni ro‘yxatdan o‘tkazilganidan so‘ng bekor qilingan hisoblanadi.

1000 aholiga nisbatan nikohdan ajralish koeffitsiyenti - hisobot yilida nikohdan ajralishlar sonini doimiy aholining o‘rtacha soniga bo‘lib, 1000 ga ko‘paytirish orqali hisoblanadi

Ko‘chib kelganlar soni – ko‘chib kelganlarning absolyut miqdori, ya‘ni muayyan hududga uning tashqarisidan ko‘chib kelganlardan iborat. Ichki ishlar organlari tomonidan aholini yashash joyi bo‘yicha ro‘yxatga olishda tuziladigan ko‘chib kelishni statistik hisobga olish so‘rovnomalarini qayta ishlash natijasida aniqlanadi.

Ko‘chib ketganlar soni – ko‘chib ketganlarning absolyut miqdori, ya‘ni muayyan hududdan uning tashqarisiga ko‘chib ketganlardan iborat. Ichki ishlar organlari tomonidan aholini yashash joyi bo‘yicha ro‘yxatdan chiqarishda tuziladigan ko‘chib ketishni statistik hisobga olish varaqalarini qayta ishlash natijasida aniqlanadi.

Aholining migratsion o‘sishi (farqi) - hisobot davrida ko‘chib kelganlar va ko‘chib ketganlar soni o‘rtasidagi farqning absolyut miqdori.